
TASHABBUSKOR MAHALLA RAISI

Joriy yil mamlakatimizda mahalla tizimi faoliyatini rivojlantirish, uni odamlarning dardu tashvishlari, orzuniyatlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaqindan biladigan tuzilmaga aylantirishda tub burilishlar davri bo'ldi.

O'tgan qisqa davr mobaynida sohaning tashkiliy-huquqiy asoslari yanada mustahkamlanib bordi. Oilalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, tizimga yangi ish uslublarini keng tatbiq etish, mahalla tizimiga aholi muammolari bilan ishlash uchun yetarli shart-sharoitlar yaratish uchun unga yaqindan ko'maklashish borasida qator ishlar amalga oshirildi. Albatta, bu vazifalarni amalga oshirishda mahalla raislariga ham katta mas'uliyat yuklangan. Shuning uchun bugungi mahalla raisi topqir, harakatchan, eng asosiysi unda egalik hissi kuchli bo'lishi kerak. Raisda mahallasiga egalik hissi bo'lsagina xalq bilan davlat o'rtasidagi ko'priq, odamlarning quvonch va tashvishlari, muammolariga yechim topadigan, dardini, taklifini aytadigan, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlaydigan bo'ladi.

Mahalla - jamiyatning "jon tomiri"ga aylandi. Mahalla hayotining barqarorligida, odamlarning davlatdan rozi bo'lib yashashida mahalla raisining tajribasi va bilimi muhimdir. Rais jonkuyar bo'lsa, o'sha mahalla bog'u bo'stonga aylanadi.

Aholi turmushiga fayzu baraka kiradi. Buni "Qoshqayron" MFY raisi Dilmurod Hamraev misolida ko'rish mumkin. U qisqa fursat ichida mahalladoshlarining mehrini qozonishga ulgurdi. O'zining mehnatsevarligi tufayli aholi murojaatlarini ijobiy hal etishga harakat qilmoqda.

- Xalq ishonchi zimmamga katta mas'uliyat yuklaydi, - dedi Dilmurod Hamraev. - Bir necha yil davlat tashkilotlarida xizmat qildim. Qo'ni-qo'shni, uyimizdagi xonadonlar bilan ishlash jarayonida asta-sekin mahalla tuzilmasi bilan yaqindan tanishdim. Mahallamiz, aholisining muammolarini o'rgandim. O'z faoliyatimda bu muammolarni hal etishga, odamlarning o'z hayotidan rozi bo'lib yashashiga harakat qilaman. Zero, bugungi islohotlarning bosh maqsadi ham aslida - shu.

MFY raisi D.Hamraev o'z tashabbusi bilan katta mas'uliyatni bo'yniga olgan holda "Ochiq byudjet" portaliga hududida elektr tarmog'ini yaxshilash uchun loyiha kiritdi. Ushbu loyihada g'olib bo'lish uchun butun Qoshqayron xalqi raisning atrofiga birlashdi. Bir oy davomida qilingan tinimsiz mehnat o'z samarasini berdi. Loyiha g'olib deb topildi. Fuqarolar tashabbuskor raisga tahsinlar aytishmoqda.

Abror DEHQONOV.

"Rishton haqiqati" gazetasidan olindi.

2022-09-27 08:44:24